

“TASDIQLAYMAN”

“Olmaliq KMK” AJ

Boshqaruv raisi

A.X. Xursanov

06.05.2024 y.

Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha “Olmaliq KMK” AJ SIYOSATI

“Olmaliq KMK” AJ (keyingi o‘rinlarda “Kombinat” deb yuritiladi) O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasidagi asosiy tog‘-kon sanoat korxonalaridan biri bo‘lib, mis, rux va qimmatbaho metallarning asosiy ishlab chiqaruvchisi va yetkazib beruvchisi hisoblanadi. Inson huquqlarini rag‘batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari Kombinat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yirik ish beruvchi sifatida Kombinat nafaqat qulay mehnat sharoitlarini ta‘minlash, balki inson huquqlarini faol himoya qilish va targ‘ib qilishga ham intiladi. Kombinat har bir inson noyob va qadrlı ekanligini tan oladi va har bir xodim o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi mumkin bo‘lgan tenglik va hurmat madaniyatini yaratishga intiladi.

Atamalar va ta‘riflar:

Inson huquqlari – bu xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan normalariga binoan, hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga muvofiq e‘tirof etilgan va kafolatlangan huquqlaridir. Barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar. (*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-Moddasi*)

KOMBINAT MISSIYASI VA QADRIYATLARI

Kombinat missiyasi – Kombinat faoliyatining barcha sohalarida inson huquqlariga so‘zsiz hurmatni ta‘minlash, barcha xodimlarimiz, hamkorlarimiz va manfaatdor tomonlarimiz uchun adolatli, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratishdan iboratdir.

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO‘YICHA SIYOSATNING ASOSIY TAMOYILLARI

- Kombinatda, butun korxonada, manfaatdor tomonlar o‘rtasida va barcha yetkazib berish zanjirida ishchi-xodimlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga alohida e‘tibor;
- Majburiy mehnatning har qanday shakliga toqat qilmaslik;
- O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida nazarda tutilgan talablarga muvofiq, ishga qabul qilish va mehnatni qo‘llash;
- Xodimlarning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga rioya qilish;
- Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Global

shartnomasining

10 tamoyiliga muvofiq inson huquqlariga rioya qilish majburiyatini olish;

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq Kombinat ishchi xodimlariga teng muomala va teng imkoniyatlarni ta’minlash;
- Irqi, jinsi, tana rangi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, dini, yoshi, nogironligi, oilaviy ahvoli yoki boshqa har qanday maqomi bo‘yicha kamsitish va ta’qib qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- Ichki va tashqi manfaatdor tomonlarning inson huquqlarini himoya qilishning asosiy tamoyillari haqida xabardorligini oshirish;
- Manfaatdor tomonlarga har qanday muammo yoki tashvishlar to‘g‘risida xabar berish imkonini beruvchi kompleks o‘zaro aloqa mexanizmlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash;
- Inson huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- Manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari borasida ochiqlik, shu jumladan, har qanday muammo yoki tashvishlar haqida nojo‘ya munosabatda bo‘lish, yoki ta’qib qilinishdan qo‘rqmasdan xabar berish;
- Birlashmalar erkinligi va jamoa shartnomalarini tuzish.

KOMBINAT MAQSADLARI

Kombinat maqsadlari - xodimlarimiz, mijozlarimiz va boshqa manfaatdor tomonlar uchun inson huquqlarining yuqori standartlariga rioya etilishini ta’minlash.

VAZIFALARI VA MAJBURIYATLARI

“Olmaliq KMK” AJ inson huquqlari himoyasiga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha o‘z oldiga quyidagi vazifa va majburiyatlarni qo‘yadi:

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro standartlarga muvofiq inson huquqlariga rioya qilish;
- inson huquqlariga rioya qilishni monitoring qilish;
- ishchi- xodimlarni kafolatlangan bandlik, ish vaqti normalariga rioya qilish, xodimlarning roziligi bilan ish vaqti oshib ketishi ehtimoli bo‘lgan holatlarni hisobga olish, adekvat ish haqi, uyushmalar erkinligi, oilaviy sharoitlarga ko‘ra ta’til, ijtimoiy himoya dasturi va ish faoliyati va shahsiy hayot muvozanatini saqlab turish kabi bazaviy huquqlar bilan ta’minlash.
- siyosatni manfaatdor tomonlar (shu jumladan xodimlar va yetkazib beruvchilar) tomonlar bilan ochiq siyosatni olib borish;
- inson huquqlari xususida lozim darajada ehtiyotkorlikni namoyon etish.
- inson huquqlari buzilishi holatlari va insidentlarni hisobga olish;
- inson huquqlariga rioya qilish va himoya qilishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish;
- inson huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida tushunchalarni yaxshilash maqsadida barcha xodimlarni o‘qitish;
- o‘zgaruvchan tendensiyalar va eng yaxshi amaliyotlarga muvofiq Siyosatni doimiy ravishda takomillashtirish va qayta ko‘rib chiqish.